

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
IJTIMOY FANLAR

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

У.Р.Шадиев

Стратегическое планирование устойчивого развития туризма: международный опыт и рекомендации для Узбекистана	6
---	---

FALSAFA

G.G'.G'affarova

Raqamlashtirish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari	15
---	----

Q.A.Pulatov

Jamiyatning huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish kontekstida sekulyar fikrlashning asosiy xususiyatlari va tarixiy shart-sharoitlari	20
---	----

J.A.Kayumov

Ijtimoiy xavfli harakatlarga moyil talabalar bilan individual ishlashda xorijiy tajribalardan foydalanish masalalari	25
--	----

K.P.Islamova

Sadriddin ayniy asarlarida jadidchilik faoliyatini jamiyat hayotiga kirib kelish shart-sharoitining yoritilishi	28
---	----

M.K.Soipova

Fazl ibn Ahmad ta'limotida jon tushunchasining falsafiy tahlili	33
---	----

O.T.Sharipova

Barkamol avlod tarbiyasida komil inson g'oyasining Xojagon ta'limoti asosidagi zamonaviy talqini	37
--	----

I.A.Suvanov

Axborot tahdidlarning namoyon bo'lishi va unga qarshi kurash zarurati	42
---	----

N.I.Hamroyev

Muhammad Abdo qarashlarida ayollar masalasi	47
---	----

A.A.Salmonov

Inklyuziv jamiyatning ijtimoiy-falsafiy mazmuni	54
---	----

B.M.Madaminov

Axloqiy tarbiyada milliy qahramonlik tuyg'usini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy tahlili	59
--	----

F.S.Qosimov

Inson kapitalini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy zarurati va ahamiyati	62
--	----

J.M.Kholmuminov, D.R.Komilov

Yusuf Khas Hajib's worldview: philosophical analysis	70
--	----

X.J.Toshpo'latov

Jamiyatda viktimologik profilaktikani amalga oshirishning istiqboldagi strategik yo'nalishlari	74
--	----

M.M.Daliyeva

O'zbek xalqining adabiy merosida ekologik mas'uliyat va fidoyilik fazilatlarining analitik tahlili	78
--	----

S.X.Tolibova

Oiladagi obyektiv omillarning shaxs ma'naviy fazilatlarini shakllanishiga o'rni	81
---	----

U.M.Maniyozov

Innovatsiya tushunchasining mazmun-mohiyati, ilmiy talqinlari va ijtimoiy mohiyati	85
--	----

O.M.Karimov

Ijtimoiy-falsafiy omil sifatida mehnat erkinligi va uning insoniy taraqqiyotdagi o'rni	90
--	----

O'.M.Xamrakulov

Yoshlarda vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirishning nazariy-metodologik asoslari	93
---	----

S.X.Mukarramov

Yangi O'zbekistonda rahbar kadrlar tayyorlashda boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning konseptual va aksiologik asoslari	99
---	----

D.S.Ermatov

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy mentalitet shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarning falsafiy tahlili	103
---	-----

F.M.Abdillazov

Kambag'allik fenomenining jamiyat hayotida namoyon bo'lish shakllari va uni qisqartirish	
--	--



UO'K: 181.1:121.1(075.8)

FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA JON TUSHUNCHASINGING FALSAFIY TAHLILI

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ПОНЯТИЯ ДУШИ В УЧЕНИИ ФАЗЛА ИБН АХМАДА

PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF SOUL IN THE TEACHINGS OF
FAZL IBN AHMADSoipova Mavjuda Karimjanovna 
Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya

Mazkur maqolada Fazl ibn Ahmadning ilmiy ijodi va hayoti falsafiy tahlili haqida ma'lumotlar berilgan. Iddatul uqul va umdatul ma'qul (Aqlarning va'da berishi va aqlarga ma'qul narsalarning asosi) asarida nafsning abadiyligi haqida fikrlar keltirilgan. Yangi O'zbekistonni barpo etishda Rumi ta'limoti, ayniqsa, Fazl ibn Ahmad g'oyalari bilan bugungi murakkab zamonda yoshlarni ruhiy barkamol insonlar etib tarbiyalash, ma'naviy jihatdan yuksaltirish muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda Fazl ibn Ahmadning Iddatul uqul va umdatul ma'qul (Aqlarning va'da berishi va aqlarga ma'qul narsalarning asosi) risolasi samarali foydalanish ijtimoiy taraqqiyotda, jamiyat farovonligida va inson ehtiyojlarini qondirilishida ustuvorligi yoritilgan.

Аннотация

В данной статье дается информация о научном творчестве и философском анализе жизни Фазла ибн Ахмада. В произведении «Иддатул укул ва умдатул маъкул» («Обещание разума и основа блага разума») содержатся размышления о вечности души. В строительстве нового Узбекистана учение Руми, особенно идеи Фазла ибн Ахмада, в сегодняшнее непростое время остаются важной задачей воспитания духовно зрелых людей и их духовное возвышение. Сегодня эффективное использование трактата Фазла ибн Ахмада «Иддатул укул ва умдатул маъкул» («Обещание разума и основа блага разума») выделяется как приоритетное направление в общественном развитии, благосостоянии общества и удовлетворении потребностей человека.

Abstract

This article provides information about the scientific work and philosophical analysis of the life of Fazl ibn Ahmad. The work treatise Iddatul uqul va umdatul maqul (The Promise of Reason and the Basis of Things That Are Good for Reason) contains thoughts about the eternity of the soul. In the construction of a new Uzbekistan, the teachings of Rumi, especially the ideas of Fazl ibn Ahmad, in today's difficult times, raising young people as spiritually mature people and spiritually elevating them remains an important task. Today, the effective use of Fazl ibn Ahmad's treatise Iddatul uqul va umdatul maqul (The Promise of Reason and the Basis of Things That Are Good for Reason) is highlighted as a priority in social development, the well-being of society, and the satisfaction of human needs.

Kalit so'zlar: Islom, ijtimoiy ilm, nafs, taraqqiyot, insondialektik, sinergetik, deterministik, ma'naviy milliy va umuminsoniy manfaatlar, progressiv taraqqiyot, axloqiy qadriyatlar, estetik, siyosiy, huquqiy, demokratik.

Ключевые слова: Ислам, социальные науки, эго, развитие, человеческая диалектика, синергетический, детерминистский, духовные национальные и общечеловеческие интересы, прогрессивное развитие, моральные ценности, эстетический, политический, правовой, демократический.

Key words: Islam, social sciences, ego, development, human dialectic, synergetic, deterministic, spiritual national and universal interests, progressive development, moral values, aesthetic, political, legal, democratic.

KIRISH

Fazl ibn Ahmad nafsning abadiyligini quyidagicha falsafiy tahlil qiladi:

Nafs insondagi basit va ruhoni tabiatiga egadir. U jism kabi murakkab tuzilmaga ega emas, aksincha, mustaqil va bo'linmas bir mohiyatdir. Nafs tashqi sezgilar bilan emas, balki aql va idrok orqali ishlaydi, shuning uchun u jismoniy emas, ruhiydir.

Jaloliddin Rumi ta'kidlaganidek, inson tana bilan jonning birligidan iborat. Shuning uchun ham, inson tanasini jondan va jonni esa tanadan ajratib bo'lmaydi. Jon bamisoli bir quyoshga o'xshaydi. Uning buguni ham, erta-indini ham mavjud emas, u abadiy. Jonning sirini, ya'ni jon quyoshining xususiyatlarini, u to'g'risidagi haqiqatni bilishni tanadan tashqaradan izlash lozim. Chunki u tanadan ajralgach, odam aql-idroki tasavvur qilolmaydigan manzilda yashaydi. Olamda unga o'xshash hech narsa yo'q. O'sha nom oddiy narsa ruhiydir. Inson ruhi bu tanadan (moddiy

olamdan), aslidan judo bo'lgan qudratdir. Inchunun, jon yoki ruhning birining ikkinchisidan farq qilishini hamma ham ilg'ab olavermaydi. Chunki inson tanasidagi jonni birdaniga ko'rib bo'lmaganidek, ruhni ham ko'rish mumkin emas. Ruh nomoddiy narsa bo'lib, hamisha yolg'iz, tanho yashaydi. Uning makoni g'ayb olamidir[1,89].

Fazl ibn Ahmad nafsning yaratilish masalasini quyidagicha falsafiy tahlil qiladi:

و یکی محدث فیہ و این صیغت سوال بود اکنون نفس حادث با شد و جسم او محدث فیہ باشد و سبب فاعلش محدث باشد و .
همچنانکه جسم او کی جهت سبب حدوث او است درین عالم و ان جسم را اصلی باشد و ان ارکان چهارانه است هم براین معیار این
[2. 1371 ه.ش-1993 م. 69 ص]. نفس را اصلی باشد حدوث این نفس الا از او صورت نبندد

Mazmuni: Agar bir kishidan so'rasha: "Nega nafs jism bilan birga yaratilgan emas?" deb, bu savolda "hodis" so'zi ikki narsani o'z ichiga oladi: birinchisi hodis qiluvchi (muxdis), ikkinchisi esa hodis bo'lgan narsa (muxdas). Endilikda nafs hodisdir va jism uning muxdasi (yaratilgani) hisoblanadi. Shuningdek, uning sababiy foili (yaratuvchisi) muxdis hisoblanadi. Jism ham uning sababi bo'lgani sababli, u ham yangidan paydo bo'lgan (hodis). Bu olamning jismi, ya'ni unga asos bo'luvchi narsa bor, u esa to'rt unsur (arkon-i chor) hisoblanadi. Shu to'rt unsur nafs uchun ham asosdir. Bu nafsning hodis bo'lishi o'lim tufayli paydo bo'lishga bog'liqdir.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYA

Forobiyning ta'kidlashicha, har bir kishining joni va aqli, ya'ni "individual aql" va "individual jon"ning paydo bo'lishida "dunyoviy ruh", "dunyoviy aql" hal qiluvchi rol o'ynaydi. Forobiyning tushuntirishicha, "dunyoviy ruh", "dunyoviy aql", "individual jon", "individual aql" paydo bo'lishi va rivojlanishining sababchisidir. "Individual jon", "individual aql" inson tanasining o'lishi, yo'q bo'lishi bilan yo'qolib ketmaydi, balki "dunyoviy ruh", "dunyoviy aql"ga qo'shiladi. Insoning joni va aqli abadiylikka ketadi, biroq hech qachon qaytib kelmaydi, qayta namoyon ham bo'lmaydi. Ular tanani tark etgandan so'ng yana bir butun bo'lib birlashadi, har bir jon va har bir aql inson tanasida yashagan vaqtida orttirgan barcha ma'naviy narsalar to'planib, hamisha barhayot "dunyoviy ruh", "dunyoviy aql"ni tashkil etadi[3,13.].

Fazl ibn Ahmad ham nafsning yo'qolib ketmasligi va tanadan oldin paydo bo'lib, u bilan aloqadorligini hamda jism to'rt unsurdan iborat ekanligini alohida ta'kidlab o'tadi.

تقدیر وجود او کی فرع است با عدم ان اصل محال باشد هم براین قیاس کی تقدیر جسم بی ارکان چهارند محال باشد اما
انچه فاعل است اثر فعل او علت تالیف است میان این نفس و این جسم این معنی در مبدأ فطرت او است اما حکم عقلی دلیل می کند که
[1371 ه.ش-1993 م. 69 ص]. وجود جسم از جهت فطرت و تسویت می باید کی متقدم باشد بر وجود نفس به قدمی زمانی به مقدار آنکه
[694 ص]

Mazmuni: mavjudlik yo'qlikning bir shoxi hisoblanadi, ammo yo'qlik uning asosidir, va u asosning mavjud bo'lishi imkonsizdir. Shu bilan birga, tanani to'rt unsursiz tasavvur qilish ham mumkin emas. Biroq, amal qiluvchi omil uning ta'siridan kelib chiqadi va bu ta'sir bu nafs va bu tanani birlashtiradi. Bu ma'no fitrat (ijodiy tabiat) asosida bo'ladi. Lekin aqliy hukm shuni ko'rsatadiki, tana mavjud bo'lishi fitrat va tenglashtirish nuqtai nazaridan nafsning mavjud bo'lishidan vaqt jihatidan avvalroq bo'lishi kerak. Bu o'sha vaqt miqdorida sodir bo'ladi.

O'rta asr xristian faylasufi Origenning fikricha, inson degan tirik mavjudot jon, qalb va tanadan iborat. Inson joni o'ziga bog'liq emas, chunki u Xudo tomonidan in'om etiladi, hamisha yaxshilik va haqiqat tomon intiladi. Qalb kishining o'z "Men"idir va insonda individuallik boshlanayotganligidan dalolat beradi. Qalb, yaxshilik va yomonlikni tanlab oladi. O'z tabiatiga ko'ra, u hamisha jon oldida, tana esa — qalb oldida qarzordir[5,59].

NATIJALAR

Qur'oni karimda: "(Ey Muhammad), sizdan ruh, jon haqida so'raydilar. Ayting: "Ruh yolg'iz Parvardigorim biladigan ishlardandir"...[6,323.]. Bunday ta'kid ruhning ma'nosiga doir bir sharh bo'lib, u bu haqda sukut qilish, ya'ni so'zlamaslikni bildirmaydi, balki bu Alloh, Payg'ambar va mo'minlar o'rtasidagi bir sir bo'lganligi sababli sukutga o'hshab qolgan.

Fazl ibn Ahmad jismning jonsiz mavjud bo'lmashligini Allohning kalomi bilan isbotlashga harakat qiladi.

هيات شخص کی درنطفه به قوت موجود است از قوت به فعل اید و این که قران بدان اشارت می کند "فاذا سویته و نفخت فیہ
من روحی" یعنی تسویت جسم از قوت به فعل آمدن او باشد و تقدم زمانی در حدوث این هر در لازم ضروری است و از قران این
[7.323.]. ایت حجت عقلی را تقویت است زیرانی که فا در کلام عرب اقتضاء تعقیب کند

Mazmuni: Shaxsning holati nutfadagi kuchlarda mavjudligi haqida, u kuchdan faoliyatga o'tishni anglatadi. Bu haqda Qur'oni Karim shunday ishora qiladi: "Qachon uni to'liq shakllantirsam va unga (o'z mulkimdagi) ruhimdan puflasam" (Sod: 72). Bu yerda jasadning kuchdan faoliyat

FALSAFA

holatiga o'tishi nazarda tutiladi. Shuningdek, arab tilida har ikki jarayonning sodir bo'lishida vaqt bo'yicha oldin-keyinlikning zaruriy ekani ta'kidlanadi.

Qur'onning mazkur oyati aqliy dalillarni quvvatlab turibdi, zero arab tilida "fa" harfi ketma-ketlikni anglatadi.

G'azzoliy "Kimiyoi saodat" risolasida tana va ruh aloqadorligi masalasida alohida fasl ajratgan. "Bilgilkim, seni kim xalq qilibdir? Ikki nimarsadin biri zohir badandirki, ani tan atabdirlar, muni zohir ko'z birla ko'rgali bo'lur. Yana biri ma'nii botindirki, ani nafs derlar, jon atarlar va dil ham derlar. Bu ma'nii botinni (yashirin ma'noni) botin (ichki) ko'z birla tanigani bo'lur. Zohir ko'z birla ko'rgali bo'lmas. Va sening haqiqating — ushbu ma'nii botindir. Ammo dilning vujudi zohir bilan birla ermasdirkim, badan o'luklarda ham bordir. Ammo (ularda) jon yo'qdir. Bizlar dil deb haqiqati ruhni ayturmiz. Vaqtiki ruq bo'lmasa tan murdordirki, aning qech e'tibori yo'qdir. Agar kishi botin ko'zini ochib, zoqir badanni va osmonu zaminni va qar nimarsaki, ani zoqir ko'zi birla ko'rsa bo'ladir, qammasini faromush qilsa, o'z vujudini nochor tanigay. Garchandki, zoqir badan osmonu zamin, o'zga mavjudotlardan bexabardir, ammo o'zligidin boxabar bo'lg'usidir[8,85].

و اذا دلالت بر زمان کند از اینجا ظاهر شود که زمان اتصال نفس به جسم متعقب باشد بر زمان حدوث جسم اما حدوث نفس در حال اقتران او باشد بدین جسم از واهب صور بی واسطه زمان این در حال مبدأ او باشد

Va agar zamonni dalil qilib oladigan bo'lsak, shundan oydin bo'ladiki, zamon nafsning jismga bog'lanishi jismning hosil bo'lishi zamonidan keyinroq bo'ladi. Ammo nafsning hosil bo'lishi uning ushbu jism bilan bog'lanishi vaqtida Vohibus-suvar (suratlarni bahsh etuvchi) tomonidan, zamon vositasiz sodir bo'ladi. Bu paytda uning boshlanishi aniq bo'ladi.

MUXOKAMA

Mutafakkir ta'limotida nafs bilan jismning ayrimligi ularning paydo bo'lishi paytida aqliy qiyos bilan isbot qilinadi. Shunga ko'ra, jism tarkibi tarqoq bo'lganda, har birining o'z manbaiga qaytishi va ayrilish vaqtida o'z asliga qaytishi ma'lum bo'ladi. Bu nafsning qayta o'z manbaiga qaytishi uning mustaqil turishi, faoliyati va tafovutligidan kelib chiqadi.

Ruh fikrning, aqlning o'zi emas, balki u murakkab jarayon markazidir. Ruh, avvalo, naf va jon bilan garmoniyada bo'ladi. Agar garmoniya buzilsa yoki ruhning o'zi ishlamay qolsa, odamda yomonliklar paydo bo'ladi. Ular ochko'zlik, tamagirlik, xushomadgo'ylik, xasislik, manmanlik, sabrsizlik, xudbinlik, surbetlik paydo bo'ldai. Odamdagi miya va qalb – ruhning ikki qanotidir. Miya nima qilish kerakligini, qalb sharoitga, vaqt va fazoga qarab qanday qilish kerakligini aniqlab beradi.

Fazl ibn Ahmad inson tanasida ruhning qobiliyati to'g'risida quyidagi misolni keltiradi.

مثال قبول قوت باصره مزین صورت را همچون مثال حدوث ان عرض است گفتم کی از واهب صور حارث می شود بواسطه جرمی شفاف و شرط محاذات جسم قابل مون حدوث این اعراض را از واهب صور الواهب العقل الحمد والشکر کما هی اهلہ [1371 ه.ش-1993 م. 69 ص.9]. ومستحقه والسلام

Mazmuni: Qabul qilish qobiliyati bilan bezatilgan shakl ham hodis bo'lgan aroznig misoli kabidir. Men aytdimki, shakllarning Holiqi (yaratuvchisi) orqali Hodis (foil yoki ta'sir etuvchi) shishasimon bir modda vositasida va jismning qobiliyatiga muvofiq ravishda amalga oshadi. Bu arozlarning hodisa bo'lishi ham aynan Voxibus-suvar yani surat va aql beruvchi tamonidan paydo qilingandir. Xamd va shukr faqat Unga loyiq va munosibdir.

O.Fayzullayevning keltirilishicha, jonning ikki tomoni bor: past tomoni nafs, yuqori tomoni ruh[10,50]. Demak, jon moddiy va ma'naviy jihatlarining birligidan iboratdir. Oldin moddiy tomon ustunlik qiladi, so'ngra ruhiy tomoni. Lekin ularning o'rta umumiy holida kurash kerak.

Tasavvufda tanani inkor etib, chilla, uzlatda o'tirish, tarki dunyo qilishni tavsiya etgan ta'limotlar bor. Lekin tana va ruhga meyorda munosabatni talab etganlar ham bor. Shulardan tana va ruh masalasini meyorda turib hal qilgan ta'limot naqshbandiyadir. Chunki bu ta'limotdagi "Dast ba kor" (Qo'l ishda) - talabi tananing zarurligini bildirsa, "Dil ba Yor" (Qalb Yorda) – Alloh bilan bo'lish talabi ruhning muhimligini anglatadi. "Dast ba koru, dil ba Yor" tana va ruhni o'zaro aloqadorlikda ekanligini, tana kamoloti uchun ruh va ruhning yuksalishi uchun tananing zarurligini ko'rsatadi. Demakki, inson kamoloti uchun faqat tana, yoki faqat ruh emas, ikkoviga ham maxsus e'tibor qaratish zarur.

Fazl ibn Ahmad tanani insoni kamolotga eltish yo'lida vosita deb tushuntiradi.

سوال اگر طبعی برسد بر طریق الزام کی ترکیب این حیوانات خسیسه وجود و خلقت ایشان جون انواع دود و ضفادع و غیر آن کی درقعرایها کند وحفرها فاسده موجود می شود سبب و علت ان جه دانیم خدای را او هم بافرشتگان مانندسرا بحلم واسطه کی ان را می [1371 ه.ش-1993 م. 11]. افرید کی حدای اکنون کی قادر عالم حکیم است ان فعل ازوی محال نیست برمذاهب عقیده اهل اسلام [70 ص].

Mazmuni: Agar shunday savol paydo bo'lsaki, "Bu past darajali hayvonlarning, ya'ni qurt, qurbaqa va shunga o'xshash turlarining mavjudligi va yaratilish sababi nima? Ular ayrim hollarda chuqur botqoqlarda va iflosliklar ichida paydo bo'ladi. Bunga sabab nima?" Alloh taolo ularni farishtalarga o'xshab, xikmat vositasi bilan yaratgan, shunday ekan, ularning barchasi Qodir va Hakim zotni qudrati bilandir. Islom ahlining e'tiqodi shunga ko'radir.

Mutafakkir nafs haqidagi ta'limotining diniy va dunyoviy ahamiyati shundaki, u nafsning kerakligi, zarurligi, oxirat va ikki dunyo saodatiga musharraf bo'lish vositasi ekanligini ta'kidlaydi. Jism (inson tanasi nazarga olinmoqda) vositasida kishi har nimaki istasa shuni qilishi mumkin. Jism yordamida nimani eshitmoqchi bo'lsa eshitadi, nimani ko'rmoqchi bo'lsa ko'radi, qayerga bormoqchi bo'lsa boradi. Har qanday fayz insonning shu nafs bilan amalga oshirgan yaxshiligi tufaylidir.

XULOSA

Xalq qilingan maxluqotga nima rizq yetsa, shu sharif nafs vositasida yetadi. Osmondan keladigan yomg'ir va balolar ham yer yuzidan shu sharif nafs vositasida daf' qilinadi.

جواب او ان باشد که این حیوانات طبیعت را کی ایشان می گویند نفی کنم و حلی و حکم و ذل او باطل کردانم و چون حکم را بسعت باطل شود اثبات صانع حی عالم در حکم کرده شود و جواب انست کی اکریی بخبرده ما این طبیعت کی برعم تو فاعل ان حیوانات است جسم است ما عرض اگرکویند جسم است انکار مٹانن و عیار کرده باشد زیراکی جسم مداخل جسمی دیگر نشود جونانکی محال است وجود دو جسم در یک چیز و مکان هم جیزی محال است و وجود دو جسم در یک چیز و یک مکان و اگر کویند عرض است محل بعید باشد کی عرض مدبر و مرکب حیوان باشد جماهیر عقلا از اهل حق متفق کی عالم هرجه ما سوی الله است جرا اجسام و اعراض نیست [1371هـ.ش-1993م. 70ص، 12].

Mazmuni: agar ular aytishsaki, bu tabiat – hayvonlarning foili (yaratuvchisi) hisoblanadi, u ham jismdir. Biz aytganmizki, agar u jism bo'lsa, bu mumkin emas. Chunki jism boshqa jism bilan bir joyda mavjud bo'la olmaydi. Chunki ikki jismning bir joyda va bir makonda mavjud bo'lishi mumkin emas. Agar ular aytasalar, u arazdir (ya'ni xususiyat yoki sifat), bu ham haqiqatdan uzoq bo'ladi. Chunki arazni o'zi hayvonning tarkibiy qismi yoki boshqaruvchisi bo'lolmaydi.

Haq egalari barchasi bu borada bir fikrda: olam, ya'ni Allohdan boshqa barcha narsalar – faqat jismlar va arazlardir.

Xulosa qilib aytganda, Fazl ibn Ahmad ta'limotida nafs javhar bo'lib, u mavjudotlarni idrok etishi, haqiqatni anglab keyin jismni tark etib, abadiy qolishi isbotlangan. Nafs ruhoni bo'lib, jismning paydo bo'lishidan so'ng vujudga kelib, uni ma'lum bir vaqt harakatlantirib, boshqarib keyin tark etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент.: Ўзбекистон. 2017. 1¹
3. Комилов Н. Тасаввуф. II китоб. Тавҳид асрори. – Тошкент.: Ўзбекистон – Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1999.
4. Холмўминов Ж. Тасаввуф онтологияси. – Тошкент: Yosh avlod matbaa.
5. Йўлдошев С., Усмонов М., Каримов Р. Қадимги ва ўрта аср Ғарбий Европа фалсафаси.- Тошкент.: Шарқ. 2003.
6. Абдулҳаким Шаръий Жўзжоний. Тасаввуф ва инсон. - Тошкент.: Адолат. 2001.
7. Абдулҳаким Шаръий Жўзжоний. Тасаввуф ва инсон. - Тошкент.: Адолат. 2001.
8. Назаров Қ. Борлиқ фалсафаси.- Тошкент. 2007.
9. Зойиров Э. Хожагий Аҳмад Косоний. Рисола - йэ вужудия. Қўлэзма. Муаллифнинг шахсий кутубхонасидан.
10. Азизиддин Насафий. Комил инсон китоби. – Тошкент.: Ғофур Фулом, 2021. – Б.48.
11. Қуръони карим маъноларининг таржимаси. / Таржима ва изоҳлар муаллифи: Абдулазиз Мансур. – Тошкент: "Тошкент ислом университети", 2001. – Б.457.
12. Файзуллаев О.Нафс, жон ва руҳ. – Тошкент.:Академия, 2005. – Б.50.
13. Болтабоев Ҳ. Ислом тасаввуфий манбалар. – Тошкент.: "O'qituvchi", 2005. – Б.85.